

YURIDIK FAOLIYAT SOHASIDAGI MASALALARNI YECHISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH



Axborotning muximlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. SHuning uchun xam qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'iraydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi. Xavfsizlikning asosiy yo'nalishlari Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligining dolzarblashib borishi, axborotning strategik resursga aylanib borishi bilan izohlash mumkin. Zamonaviy davlat infratuzilmasini telekommunikatsiya va axborot tarmoqlari hamda turli xildagi axborot tizimlarini tashkil etib, axborot texnologiyalari va texnik vositalar jamiyatning turli jabhalarida keng qo'llanilmoqda (iqtisod, fan, ta'lim, xarbiy ish, turli texnologiyalarni boshqarish va x.k.) Iqtisodiy xavfsizlik. Milliy iqtisodda axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash va foydalanish jarayoni hamda vositalarini qamrab olgan Yangi tarmoq vujudga keldi. «Milliy axborot resursi» tushunchasi Yangi iqtisodiy kategoriya bo'lib xizmat qilmoqda.



Davlatning axborot resurslariga keltirilayotgan zarar axborot xavfsizligiga xam ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatni shakllantirish va uning asosida jahon yagona axborot maydoniga kirib borish natijasida milliy iqtisodimizga turli xildagi zararlar keltirish xavfi paydo bo'lmoqda. Mudofaa xavfsizligi. Mudofaa sohasida xavfsizlikning asosiy ob'ektlaridan bo'lib, mamlakatning mudofaa potentsialining axborot tarkibi va axborot resurslari hisoblanmoqda. Xozirgi kunda barcha zamonaviy qurollar va harbiy texnikalar juda ham kompyuterlashtirilib yuborildi. SHuning uchun xam ularga axborot qurollarini qo'llash ehtimoli katta. Ijtimoiy xavfsizlik. Zamonaviy axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarining milliy iqtisod barcha tarmoqlarida keng qo'llanishi inson psixologiyasi va jamoa ongiga «yashirin» ta'sir ko'rsatish vositalarining samaradorligini yuksaltirib yubordi. **Ekologik xavfsizlik.** Ekologik xavfsizlik – global masshtabdagi muammodir. «Ekologik toza», energiya va resurs tejaydigan, chiqindisiz texnologiyalarga o'tish faqat milliy iqtisodni axborotlashtirish hisobiga qayta qurish asosidagina yo'lga qo'yish mumkin. Avtomatlashtiriltan axborot tizimlarida axborotlar o'zining hayotiy davriga ega bo'ladi. Bu davr uni yaratish, undan foydalanish va kerak bo'lmaganda yo'qotishdan iboratdir. Axborotlar xayotiy davrining xar bir bosqichida ularning himoyalanganlik darajasi turlicha baholanadi. Maxfiy va qimmatbaho axborotlarga ruxsatsiz kirishdan himoyalash eng muxim vazifalardan biri sanaladi.



Huquqiy kibernetika va informatikaning salaflaridan biri S.S. Moskvina huquqiy axborotni yanada keng tushunadi. Uning fikricha, «huquqiy axborot ijtimoiy axborotlarning tur xili bo'lib, siyosiy axborot bilan chambarchas bog'liq». Huquqiy axborotlarni «ijtimoiy amaliyotda foydalaniluvchi jamiyat hayotining huquqiy sohasi, unda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar haqidagi bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar sifatida ta'riflash mumkin». S.S. Moskvinning fikricha, huquqiy axborotlar «umum majburiy xususiyatga ega qonun-qoidalar haqidagi bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar»ni ham (huquqiy axborotlarning bu jihatiga asosiy e'tibor beriladi), «huquq ijodkorligi, huquq normalarini qo'llash amaliyoti, ilmiy tadqiqotlarning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar»ni ham o'z ichiga oladi.



Huquqiy axborotlar rasmiy va hujjatli xususiyatga ega bo'ladi. Huquqiy axborotlar shubhasiz to'g'ri bo'lishi lozim. Biroq bu atama mazkur holatda spetsifik ma'noda tushuniladi.

Normativ huquqiy hujjatlarning shubhasiz to'g'riligi — bu mavjud qonun matnining dastlabki (autentik) matn, namuna («etalon»)ga mosligidir. «Shubhasiz to'g'rilik» atamasi bilan bir qatorda «muvofiqlik» atamasi ham qo'llanishi mumkin. Bu yerda «haqiqiylik» atamasi noo'rindir. Uni huquqni qo'llash faoliyati sohasida ishning amaliy jihatlarini aniqlash natijalarini tavsiflash uchun qo'llash maqsadga muvofiq.

Normativ huquqiy axborotlarning tizimlilik - bu ayrim «kristallashtiruvchi» boshqaruv markazi atrofida turkumlangan normativ huquqiy hujjatlar (yoki normalar)ning majmuidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi butun huquq tizimi uchun shunday markaz hisoblanadi.



Nonnormativ huquqiy axborot resurslarining egasi davlat hisoblanadi. Ularga egalik huquqi sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Yuridik muassasalar nonnormativ huquqiy axborot resurslarini bevosita tezkor boshqaradi, yuritadi va tasarruf qiladi.

Huquq sohasidagi vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan ijodiy ishlovlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari, prinsipial jihatdan yangi axborot texnologiyalari belgilangan tartibda intellektual mulk obyektlari deb topilishi mumkin.



Fuqarolar yuridik muassasalar ixtiyoridagi nonnormativ huquqiy axborotlar (ma'lumotnomalar, hukmlar va qaroriarning nusxalari, statistik ma'lumotlar va boshqalar)ni olishga haqlidirlar. Bunday axborotlarni olish uchun asoslar ko'rsatilgan arizalar berilishi lozim. Fuqarolar ko'rsatilgan axborotlardan yuridik muassasa doirasida tanishishga haqlidirlar.


Xalqaro bitimlar, normalar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga muvofiq fuqarolar xalqaro va milliy tizimlar hamda axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan tegishli axborot xizmatlari tomonidan o'rnatiladigan shartlarda huquqiy (normativ va nonnormativ) axborotlarni olishga haqlidirlar.

Yuridik muassasalar nonnormativ huquqiy axborotlar olish uchun murojaat qilgan fuqarolarning talablarini qondirishlari lozim. Talab qilingan axborotning maxfiyligini isbotlash majburiyati tegishli muassasa zimmasiga yuklanadi.

Har bir fuqaro va boshqa subyektlar yuridik muassasadan har qanday turdagi va miqyosdagi ma'lumotlar: mazkur muassasaning aniq nomi, uning rahbarlari, jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish vaqti va tartibi, boshqa yuridik muassasalar, shu jumladan markaziy va mintaqaviy yuridik muassasalar haqida xuddi shunday ma'lumotlarni olishga haqlidirlar.



Axborotlarni saqlashning eng qadimiy usullaridan biri yozuv hisoblanadi. Qadimgi odamlar yashagan g'orlar devorlaridagi rasm va yozuvlar buning yaqqol isbotidir. Yozuv texnologiyasi asrlar davomida deyarli o'zgarmadi. Faqatgina yozish vositalari takomillashib bordi. Avval toshlarga o'yib yozilgan bo'lsa, keyinchalik turli bo'yoqlar yordamida yozildi. Xayvon terilariga ishlov berish natijasida toshlarga emas, teriga yozish yo'lga qo'yildi. Qog'oz ishlab chiqarilishi bilan yozish yanada qulaylashdi. Shu bilan birga yozuv quroli xam takomillashib bordi. Yozish uchun toshlar, turli mo'yqalam, qamish-perolar, g'oz patlaridan foydalanildi. Patlar o'rnini peroli ruchkalar, ularni avtoruchkalar, avtoruchkalar o'rnini esa yozuv mashinkalari egalladi. Lekin asosiy jarayon - matnga o'zgartirish kerak bo'lsa uni qaytadan yozish zarurligi o'zgarmadi. Bu juda ko'p kuch va mehnat talab qiladi.



Kompyuterlar matn yozish texnologiyasini tubdan o'zgartirib yubordi. Matnlarni yozish, saqlash, qayta ishlash, qog'ozga chop etish kabi ishlarni bajarishga mo'ljallangan ko'plab dasturlar yaratildi. Bu dasturlar asosan ikki turga bo'linadi: matn muharrirlari va matn protsessorlari. Ularning asosiy farqi kompyuterga kiritilgan matnning ko'rinishiga bog'liq.

Matn muharriri kompyuterda eng ko'p ishlatiladigan dasturlar qatoriga kiradi. Ixtiyoriy rusumli kompyuterlar uchun matn muharrirlari yaratilgan. Xatto bir rusumli kompyuter uchun yaratilgan o'nlab matn muharrirlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, Pravets kompyuterlarida "RED", "Volna", "Punktir", IBM kompyuterlarida "WD", "Foton", "Leksikon" va xokazo.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT